

DAVOLASH SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI MULOQOT USLUBLARI

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi o'qituvchisi

Nazarova Zarnigor Raxmatjon qizi

Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti

talabasi Axmadova O'g'iloy Faxriddin qizi

Annotatsiya: *Mazkur maqola davolash samaradorligini oshirishda shifokorlarning bemorlar bilan muloqotdagi o'рни hamda shifokor etik va estetik madaniyatining bemorlarga ta'sirini o'rganishga bag'ishlanadi.*

Tayanch tushunchalar: *muqot, shifokor, bemor, temperament, Gippokrat, kommunikatsiya, psixoterapiya, individuallik.*

Аннотация: *: Данная статья посвящена изучению роли врачей в общении с пациентами в повышении эффективности лечения, а также влияния этики и эстетической культуры врача на пациентов*

Ключевые слова: *общение, врач, пациент, темперамент, Гиппократ, общение, психотерапия, индивидуальность*

Annotation: *This article will be devoted to the study of the role of doctors in communication with patients in improving the effectiveness of treatment, as well as the influence of the medical ethics and aesthetic culture on patients*

Key words: *communication, doctor, patient, temperament, Hippocrates, communication, psychotherapy, individuality.*

Muloqot-faqat insonlarga xos bo'lgan jarayondir. Kishilar faoliyat jarayonida bir – birlari bilan muloqotda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. O'zaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi. Muloqot tushunchasi mazmunmohiyati va vositalariga ko'ra bir necha turlarga ajratiladi. Mazmuniga ko'ra, moddiy (faoliyat jismlari va mahsulotlari almashinuvi), kognitiv (bilimlar almashinuvi), konditsiv (ruhiy va jismoniy holatlar almashinuvi), motivasion, (xohishlar, maqsadlar, qiziqishlar, motivlar, ehtiyojlar almashinuvi), faoliyatli (harakatlar, muolajalar, malakalar, ko'nikmalar almashinuvi) va b. Muloqot tushunchasi kommunikatsiyadan farqlash kerak. Kommunikatsiya-tirik va o'lik tabiatdagi tizimlar o'rtasidagi axborot almashinuvi, insonlarning texnik vositalar bilan aloqa qilishi bularning barchasi kommunikatsiya. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqot tashqi ijobiy ta'sirlar , namunalar asosida o'zini - o'zi tuzatish, qayta , shaxsiy imkoniyatni ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi , komillik sari yetaklaydi. Bundan tashqari tibbiy psixologiya o'рни juda katta hisoblanadi. Bemorlar va shifokorlar o'rtasidagi muloqot davolash samaradorligini oshiradi. Har qanday kasallik asosiy davolash choralariidan tashqari bemorlarga ruhiy ta'sir qilishni ham taqozo etadi. Masalan operatsiyasiga tayyorlanayotgan

bemorni jarroh yaxshi soʻzlar bilan tinchlantirib , operatsiyasini muvaffaqiyatli oʻtishi va undan soʻng sogʻayib oyoqqa turib ketishiga ishontirish kerak. Operatsiyadan soʻng ham bemorlar bilan suhbatlashish, asosan uning ruhini koʻtarish va asabini tinchlantirishga yoʻnaltiriladi. Bu ish bilan albatta jarrohni oʻzi va boshqa tibbiyot xodimlari shugʻullanadi. Homilador ayolning tugʻish paytidagi ruhiy holati, ayniqsa, alohida psixologik yondashuvni talab etadi qoʻrquvdan toʻlgʻoqning qaytib ketish hollari ham koʻp uchraydi. Tugʻayotgan ayoldagi qoʻrquvni psixologik suhbatlar bilan tinchlantirib yoʻqotish mumkin. Shu bois ham xorij davlatlarida tugʻishdan oldin ayolning tibbiy psixologik koʻrikdan oʻtishi standartga kiritilgan. Shifokorlar bemorlar bilan muloqotda quyidagi strategiyalardan foydalanish kerak.

1. Biror narsa aytishdan oldin, nima demoqchi ekanligingizni oʻylab koʻring, nima deyishni aniq bilganingizdan keyin bemorga fikringizni bildiring.

2. Diqqat bilan tinglang bemorga savollar bering uning reaksiyalariga eʼtibor bering va siz ham xuddi shunday javob bering savolni qayta qayta bersangiz bemor ahvolini oydinroq aytadi bu esa tashxisni toʻgʻri qoʻyishga bir qadam .

3. Bemorlarning ehtiyojlarini bir butun sifatida koʻrib chiqing ,bunda bemorning tibbiy holatigina emas balki ichki kechinmalari ,qoʻrquvi ,etiqodini , ijtimoiy sharoitni va b qarashingiz kerak.

4. Bemorlar bilan tushunarli tilda gapring . Iloji boricha tibbiy terminlardan voz kechib gapring , keraksiz chalkashliklarga yoʻl qoʻymaslik uchun sekin va aniq gapring.

5. Oʻtgan tajribalar boʻyicha munozaralaringizni yarating .Bundan davolanib ketgan bemorlarni uyida qilinishi kerak boʻlgan davo choralarini koʻrmagani tufayli ahvol yomon boʻlib kasalxonaga qayta tushganini aytib keyingi bemorlarni bunday qilmasligini takidlang.

6. Bemorlarga hamma narsani diqqat bilan aniq tushuntiring bunda tashxisni,davolash kursini ,kasallikni oldini olishni tushunarli tilda yetkazing.

7. Sizni tushunganiga ishonch hosil qilish uchun bemorga aytgan gaplaringizni birma bir qayta aytishini soʻrang bu esa sizni tushunishga yanada yordam beradi

Shifokorlar faoliyati davomida quyidagi yoshlar bilan muloqot qiladi.

1Kichik yoshdagi bolalar bilan tibbiy muloqot .

2 oʻsmir va oʻspirinlar bilan tibbiy muloqot.

3 oʻrta yoshlilar bilan tibbiy muloqot.

4 Keksa yoshlilar bilan tibbiy muloqot.

Shifokor bemor koʻnglini koʻtarib agar u yosh boʻlsa, «hali toʻyingizda osh yeymiz, xizmat qilamiz», yoshi ulugʻroq boʻlsa - «hali nevara-yu chevaralaringizni boqib yurasiz», qabilida gaplar aytishi kerakki, bemor beixtiyor bunday koʻngilga yoquvchi muloqotni mamnuniyat bilan eslasin. Har bir shifokor Mahmud Qoshgʻariyning: «Bilagʻon odamlarning nasihatlaridan foydalaning. Chunki yaxshi soʻz taʼsir qilgach, dilga joylashadi», degan

purhikmatlarini yodda olib qolishi foydadan holi emas. Shifokor bemor bilan ma'lum mantiqiy ketma-ketlikda savol-javob qilishi kerak.

Bu suhbat (dialog)da fikrning tushunarli bo'lishi uchun marom, urg'u va takror to'g'ri belgilanishi, mazmun va ohangdorlikning uyg'unlashuvi, so'zlar aniq hamda to'g'ri talaffuz qilinishi muhimdir. Zero, xalqimiz – kishining jamoli tilidir, deydi. Shifokor tashqi ko'rinishi shifokor va bemor o'rtasida ishonchli munosabatlarni o'rnatish elementidir. Nopok ko'rinish, eskirgan xalat, I.Sh.F. ko'rsatiladigan vrach nishoni yo'qligi, taralmagan sochlar, iflos tirnoqlar, tibbiyot xodimiga nisbatan ishonchni o'rnatishga yordam bermaydi. Bemorlar bilan muloqotda shifokor tomonidan masxara qilish, do'q po'pisa, so'kinish uslubi, qo'rqitish, ovoz tembrini ko'tarish shifokorning bemor oldida obro' e'tibor yo'qolishga olib keladi. Bemorlarga "siz" deb hamda ismi, sharifi bilan murojaat qilish kerak. Muloqot sodir bo'layotgan xonada bezovta qiluvchi omillar bo'lmasligi kerak. (m: juda yorqin yorug'lik, baland musiqa, shovqin va b) mavjud bo'lsa ularni o'zgartirish kerak. Suhbat boshlash vaqtida avvalo bemordan tayyormi yoki yo'qligini so'rash kerak. ehtimol charchagan, qattiq qo'rqan, stressda, hafa bo'lgan vaqtda savolga javob bermasdan jim bo'ladi. Shuning uchun bemor suhbatga tayyor vaqtda muloqot o'rnatish mumkin. Bemor ruhiyat sog'lom odamnikidan farq qiladi. Har kim betoblikga turlicha munosabatda bo'ladi, kimdir qattiq siqiladi va o'z ahvolini o'zi og'irlashtiradi, boshqa birov tuzalishda umidni uzib taqdirga tan beradi, uchinchi esa sog'ayib ketishiga ishonadi. Bu albatta, bemor shaxsiyati va temperamentiga ko'p jihatdan bog'liq. Demak bemorni davolashga ko'rishayotgan har bir vrach uning qanday temperament (xolerik, sangvinik, melanxolik, flegmatik) egasi ekanligi va qaysi shaxs tipiga mansubligiga e'tibor qaratishi lozim. Bu temperamentlarni fanga Gippokrat kiritgan bo'lib quyidagilarni ta'kidlagan, sangviniklar kasallikka kam chalinadi. Xolerik va melanxoliklar esa kasallikka moyil kishilardir. Mutafakkir "kasalliklar kechishi va bemorning sog'ayib ketishi temperamentga aloqador" deb hisoblagan. Gippokrat "bemorlarni dori bilan emas balki so'z bilan davolash afzal" desa, Abu Ali Ibn Sino "bemor borki, uni so'z bilan davolasa bo'ladi" deb aytgan.

Xulosa: Bemorlar bilan muloqot qilishda ehtiyotkorona munosabatda bo'lish shart. Bemorlarga o'z vaqtida tashxis qo'yish va davolash choralari to'g'risida tushunarli tilda yetkazishni bilish kerak. Bazi bemorlar o'z mutaxassisligi bo'lmagan kasal shifokorlardir. Masalan: dermatolog vrach onkologik kasalliklar bilan og'rikan hech qachon uni yonida tibbiy lotincha terminlarni ishlatmaslik kerak, chunki bu atamani tushunishi mumkin hamda ahvoli yanada og'irlashib qoladi. O'smir yoshidan oshgan bemorlar bilan konflikt kelib chiqarishi mumkin. Buning sababi dori ichmaslik, davolanish rejimga rioya qilmaslik va b. Buni oldini olish uchun shifokor bemor ehtiyojidan kelib chiqqan holda davolash kursini olib borishi kerak. Shifokor bemor bilan muloqot o'rnatishda avvalo, muomala madaniyati, kiyinish uslubi, bilim darajasini yuqoriligi ishonch ortishiga sabab bo'ladi hamda kasallikdan sog'ayishga zamin yaratadi. Shifokor bemor bilan samimiy, chin ko'ngildan, uning shaxsini xurmat qilib, qo'llab-quvvatlab, aniq va tushunarli muloqat

oʻrnatishi kerak. Bemorda muloqat davrida turli extiyojlar kelib chiqishi mumkin. Bunda ularga maslahatlar berish, koʻnglini koʻtarish, tinchlantirish yoki u bilan ijtimoiy aloqa oʻrnatish lozim, bu vaqtda shifokorga uning tajribasi, muloqat koʻnikmalari va muommala vositasi katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Muloqot psixologiyasi” M.Maxsudova
2. “Tibbiyot psixologiyasi” Z.Ibodullayev
3. Zarnigor, N. (2022). TIBBIY PSIXODIAGNOSTIKADA KOGNITIV FUNKSIYALAR DIAGNOSTIKASI MUAMMOSI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(3), 43-46.
4. Raxmatjonqizi, N. (2023). KASALLIKKAMUNOSABATTLARIVAULARNINGTAHLILI. Scientific Impulse, 1(6), 439-443.
5. Raxmatjonqizi, N. (2023). PSIXOLOGIKYETUKLIKNINGIJTIMOIY-PSIXOLOGIKOMILLARI. Scientific Impulse, 1(6), 436-438.
6. Назарова, З. (2023). ПСИХОСОМАТИК КАСАЛЛИКЛАРДА ПСИХОКОРРЕКЦИЯ ВА ПСИХОПРОФИЛАКТИКА УСУЛЛАРИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 268-272.
7. Boysoatovna, R. R. (2022). KASB TANLASH MOTIVATSIYASI NAMOYON BOʻLISHIDA PSIXOLOGIK OMILLAR. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 1(11), 65-69
8. Boysoatovna, R. R., & Muxayyo, A. (2023). TIBBIYOT XODIMLARI OʻRTASIDAGI IJOBIY MUHITNI YARATISHGA QARATILGAN PSIXOLOGIK TAVSIYALAR. Scientific Impulse, 1(6), 424-429.
9. Boysoatovna, R. R. (2023). ABU ALI IBN SINO ASARLARIDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDOSHUVNING OʻZIGA HOS JIHATLARI. Scientific Impulse, 1(6), 419-423
10. Boysoatovna, R. R. (2023). TALIM DARAJASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA HORIJIIY DAVLATLAR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 490-496.
11. Boysoatovna, R. R. (2022). OʻRTA ASR SHARQ OLAMI YETUK MUTAFFAKKIRI ABU NASR FAROBIY ASARLARIDAGI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLAR. Scientific Impulse, 1(4), 737-739.
12. Zarnigor, N. (2022). RAHBAR PSIXOLOGIYASI VA UNING MEHNATIGA QOʻYILADIGAN TALABLAR. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(24), 121-125.